

Kuch – bilim va tafakkurda

# Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2023-yil 15-fevral chorshanba № 7(9436)

Xalq ziyolilari gazetasi

**Abdulla A'zam:**

## Hassamizni

*yana bir marta yo'qotmaylik*



**Dunya  
uning to'yiga  
tayyorlanyapti**



Quyosh paneli degan masala chiqqani beri halovatimiz yo'qoldi. Nima emish, har bir o'qituvchi quyosh panelini uyiga o'rnatishi shart ekan. Hatto shaxsiy uyiga ega bo'lмаган ustozlarga bu ortiqcha ish-ku. Tushunolmayman, nima uchun quyosh panellarini o'rnatishga majburlashadi? Nima majburiyat bo'lsa, o'qituvchi aybdor, majburiy obuna, maktab remonti...

Zuhra BO'RIYEVA

Ayrim maktab rahbarlari o'qituvchilardan bo'lar-bo'lmas ishlar uchun pul yig'averishi haqida ko'p eshitamiz. Unutmaylik, biz ziyoli insonlarmiz. Peshona teri bilan topgan pullarimizni birovga uzatish uchun o'qimaganmiz. O'z haq-huquqlarimizni bilishimiz shart. Mana oling, deb beraversak, hamma shunga o'rganadi. Bu – o'zimizga bog'liq masala.

Barno ABDULLAYEVA

Darslardan keyin qo'shimcha ishlashning aybi yo'q, menimcha. Axir erkak o'qituvchi uchun maktabning maoshi ozlik qilishi tayin. Lekin taksichilik, ustachilik va boshqa ishlarni qilayotganda buyurtmachi o'zimiz o'qitgan o'quvchilar bo'lib chiqyapti. Ularga doim "yaxshi o'qi" deb uqtirganmiz, birortasi "yaxshi o'qisam sizdeks usta yoki kirakash bo'lamanmi?" deb qolsa, nima derkanmiz-a?..

Shohjahon G'ULOMOV

F.Rahimov fotokolajji.



Nuqtayi nazar

# “O‘qish” majburiyatmi?

## sifatli ta’lim olishda fuqarolik pozitsiyasining o‘rni



Fuqarolarga ta’lim olish imkoniyatini yaratish, aholi savodxonlik darajasini oshirish, fan va texnologiya yutuqlarini keng jamoatchilikka targ‘ib qilish davlat siyosatida muhim yo‘nalish hisoblanadi. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: fuqarolarning ta’lim olishi majburiyatmi yoki imkoniyat?

**“Har kim bilim olish huquqiga ega”.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ushu moddadan anglash mumkinki, bilim olish bizning fuqarolik huquqimiz. Undan barcha fuqarolar: yoshlar, yoshi ulug‘lar, imkoniyati cheklanganlar va boshqa shaxslar foydalanishi mumkin.

**“Bepul ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi”.** Bosh Qomusimizdaggi ushu norma, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va boshqa huquqiy asoslardan ma’lumki, mifik taba’limidan boshlab bepul o‘qish, zamonaviy o‘quv xonalari va jihozlar, o‘quv adabiyotlari hamda malakali ustozlar xizmatidan foydalanishimiz davlat tomonidan kafolatlangan. Bu imkoniyatlar davlat ta’lim standartlari va o‘qish jarayonlarida belgilab berilgan burch va majburiyatlarni ado etishimiz hisoblanadi. Ammo mamlakat taraqqiyoti va fuqarolik jamiyatini qurish uchun

ta’lim standartlarini bajaribgina qolmasdan, yanada izlanish va harakatda bo‘lish hissi har bir o‘quvchi, fuqaroda shakllanmog‘i zarur. Ya’ni, buni ta’limda fuqarolik pozitsiyamiz deb atash mumkin. Kishi jamiyatdagi har bir o‘zgarishni tahlil qiladi, ta’sirini o‘rganadi, ta’lim olishni faqat darsda ishtirot etish, vazifalarni bajarish debgina emas, balki o‘zi va jamiyat uchun manfaatlari bo‘lgan bilimlarni o‘rganish deya qabul qiladi hamda har bir daqiqaning g‘animat ekanligini teran his qiladi.

Afsuski, bugun ta’lim olish huquqimizni majburiyat sifatida qarovchi yoshlar ko‘plab uchramoqda. Ta’lim olish uchun yaratilgan imkoniyat va quyliliklarga qaramasdan bo‘sh vaqtimizni besamar o‘tkazish, ijtimoiy tarmoq va mobil qurilmalarga ko‘p vaqtimizni ajratishimiz kitob o‘qish, ilm olishga bo‘lgan hurmatimiz, ishtiyoqimizni susaytirmoqda.

**“Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida aytilgan ushu fikrlardan bilish mumkinki, sifatli ta’lim olish ertangi kelajagimiz poydevori, taraqqiyotimiz asosi hisoblanadi. Sifatli ta’lim berish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi: yangi o‘quv adabiyotlari yaratildi, o‘quvchi-yoshlar va o‘qituvchilar majburiy mehnatga jalb qilinmaydigan bo‘ldi, zamonaviy o‘quv binolari qurildi, o‘qituvchilar malakasini osbirish bo‘yicha yangi islohotlar olib borilmoqda.

Sifatli ta’lim berish hamda sifatli ta’lim olishni davlat va fuqaro o‘rtasidagi kelishuv sifatida qarasak bo‘ladi. Zero, davlat tomonidan sifatli ta’lim berish – qarz, fuqarolar tomonidan sifatli ta’lim olish farz bo‘lishi kerak. Buning uchun jamiyatimizda ta’lim olishni majburiyat sifatida emas, burch deb qarash, belgilab berilgan standart va “qolip”lar bilan chegaralanib qolmasdan o‘qish va izlanish har bir kishi, yoshlar, qolaversa, ota-onalar hayotining muhim qismiga aylanmog‘i kerak.

Endi tasavvur qilib ko‘raylik: jamiyatimizdagi har bir shaxsda shunday fuqarolik tushunchasi, pozitsiyasi shakllansa, bunday jamiyat qanchalar taraqqiyetgan bo‘lardi??

Nodir YUSUPOV,

Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti direktori o‘rnbosari

# “Fan va ilm to‘grisida biz hanuz komil emas”



Mahmudxo‘ja Behbudiy “Risolayi jo‘g‘rofiya Rusiy” (Rossiya geografiyasi, 1904), “Risolayi jo‘g‘rofiya umroniy” (Aholi geografiyasiga kirish, 1905), “Muntahabi jo‘g‘rofiyayi umumiyy” (Qisqacha umumiyy geografiya, 1906) kabi asarlarida o‘zining geografik qarashlarini bayon etgan.

Jumladan, “Muntahabi jo‘g‘rofiyayi umumiyy” asarining kirish qismida turkcha, arabi, forscha va rus tillaridagi lug‘atlardan gazeta, jurnal, atlas, xarita, globus va yer shari haqidagi ma’lumotlar hamda raqamlar hisobotlardan foydalanilganligini qayd etadi. Unda “Otiyaga (quyida) bayon bo‘lgan fan va ilm to‘g‘risida biz hanuz komil emas, navqadammiz”, deydi. Shuningdek “...yana jo‘g‘rofiyayi olam va ahvoli zamon bu olami ro‘zg‘orni inqilobi va ulushi asriya fununa zamoniyani taraqqiysi ila har on tag‘yor topadur”, deb kamtarlik bilan, xokisorona geografik olam to‘g‘risidagi tushuncha va uning tamoyillari o‘zgarib borishini kitobxonga yetkazib beradi.

“Muntahabi jo‘g‘rofiyayi umumiyy” asarida “Geografiya” atamasiga izoh berib: “Jo‘g‘rofiya degan so‘zning ma’nosи, yunon lug‘ati arabiycha ta’rifni arz ma’nosiga, ya’ni yer va tufroqni bayon qiladurgan ilmni aytadur”, deydi. Behbudiy ta’rifiga ko‘ra, geografiya yer shari va uning tuzilishi (ya’ni, tuprog‘i) nimadan iborat ekanligini o‘rganuvchi fandir. Bugungi kunda “Geografiya” so‘zi (grekcha “geo” – yer va “grafo” – yozaman, tasvirlab yozaman) birlik sonda ishlatilganligidan bu so‘z biringa fanning nomini anglatar ekan, deb tus hunish mumkin. Haqiqatda esa bu so‘z tabiiy va ijtimoiy fanlarning ma’lum guruhini bildiradi. Bundan tabiiy fanlar yer shari yuzasidagi tabiiy hodisalarni o‘rgansa, ijtimoiy fanlar turli mamlakatlarda kishilik jamiyatining xo‘jalik faoliyati xususiyatlarini o‘rganadi.

Behbudiy: “Jo‘g‘rofiya ilmini nega

nav’ holda va bayonlari bo‘ladur. Anga qarab ushu ilmg‘a teyishli bayon va fanlar bir necha ism ila ataladur”, deydi. Jumladan, yer shakli(gavda, hajim)-dan osmon ila yer orasidagi xosiyati va osmonidagi nimarsalar ila inobatni va harakatidan bayon qiladurg‘on ilmni “Jo‘g‘rofiyai riyoziy” yerning xosiyati, tufroq past va balandligi, har xil giyoh va konlari, tog‘, daryo, ko‘l, mijoz va havosidan qilaturg‘on ilmni “Jo‘g‘rofiyayi tabiiy”, ataladur. Yer yuzidagi katta hodisalar ila urug‘, hukumatdorlik, xulosa va boshqa ilmni ushu ilmg‘a bayon qilib, jo‘g‘rofiya kalimasini oxiriga qo‘shilishig‘a taa‘luq ilm va fanni oti qo‘shiladur”, deydi va “Jo‘g‘rofiyayi tarixiy”, “Jo‘g‘rofiyayi siyosiy”, “Jo‘g‘rofiyayi umroniy” va boshqalarni misol keltiradi.

Umuman, jo‘g‘rofiya qachon paydo bo‘lgan? Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z asarlarida jo‘g‘rofiya fanining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga doir bir qancha ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Jumladan, uning yozishicha: “Tarix va jo‘g‘rofiya kitoblarida yozilibdurki, jo‘g‘rofiya ilmi ilk marotaba Misr mamlakatiga Hazrat Musodan ilgari fir‘avnlar zamonida boshlanib, yer, tufroq, dengizlar borasig‘a bayonotlar yozilib xarita – kartag‘a o‘xshash “planlar” ixtiro bo‘lin ganligi ma’lum bo‘ladur. Chin mamlakatiga ham ushu ilm siroyat qilib Yu degan podsho Xitoy mamlakati xaritalarini chiniy kosalar ustiga naqsh qildirib dur. So‘ngra ushu ilm yunon xalqig‘a sifat qilib, ala zaminig‘a rivoj topibdur.”

Behbudiy Arastu, Strabon, Ptolomey

kabi olimlar ishlarini tahlil qilib, ularning geografik qarashlarini o‘rganib chiqadi. Jumladan, u: “Iskandari Kabir miloddan 350 sana ilgari tiriklik qilar edi. Ani ustodi Arastu hokim bu ochilgan maktablar to‘g‘risig‘a bayonnomma-yu kitoblar yozib, jo‘g‘rofiya ilmiga rivoj berdi. Ushbu hokim miloddan 384 sana ilgari tavallud bo‘lib edi. So‘ngra Istrabo‘n (Strabon – qadimgi yunon geografi va tarixchisi, 17 kitobdan iborat “Geografiya” asarining muallifi), Batlimus (Ptolomey – qadimgi yunon munajjimi) degan yunoniy olimlar jo‘g‘rofiya va hay‘at ilmlari to‘g‘risida yaxshi kitoblar tasnif qilib, bu ilmlarga ko‘p rivoj berubdir. Osmon to‘qqizdur va yer atrofig‘a aylanadur, degan kishi ushbular va nizomi mahdud egasidur”, deb yozadi.

U “Muntahabi jo‘g‘rofiyayi umumiyy” asarida buyuk geografik kashfiyotlar davrini ta’riflagan. Jumladan, “Avvalgi zamonlarga oti eshitilmagan Amriqa (Amerika), Puliniziya (Polineziya), Orazzi Qutbiy (Yerning qutblari) va minglar ila jaziralarni topib, hozirgi barcha mamlakat va jazira (orol) va dengizlarni masofati (o‘lchovi) ila hammag‘a bilinmag‘i bois bo‘ldilar. Dunyo ilmi birdan rivoj topdi. 898-sanayi hijriyag‘a farangi toifasidan Kristofor Kolumb degan ilmi riyoziyga dono va dengiz safariga mohir borub, Amriqa yerlarini topdi. O‘nlanchi asr hijriyag‘a Rusiya odamlaridan Yermak degan kishi hozirgi Sibir mamlakatini kashf qilib, Rusiya hukumati qo‘shdi. 1741-sanayi melodiyag‘a Bering, Cherikof degan kemachi kaptanlar Shimoliy Amerikaga borub, Sanika degan jaziranı topib, Yangi Arxangil degan shaharni bino qilib, Bering bo‘g‘ozini topdilar. Xulosa, uch-to‘rt asrdan beri yildan-yilga ilgari bilinman va eshitilmagan jazira mamlakat va qutblar tarafidagi yerlarni ahvoli fa-

rangi – Ovrupo ulamoyi jo‘g‘rofiyyun va sayyohlarning g‘ayrati ila olam yoyinki ilm ahliga bilindi”, deb Amerika va unga tutash hududlar kashf qilinganligini aytadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z asarlarida o‘sha davrda Yevropa mamlakatlarida geografiya jamiyatlar tuzilganligi, uning a’zolari va geografiyaning paydo bo‘lishi, rivojlanish bosqichlarini bayon qiladi. Bundan tashqari, butun dunyoda “Geografiya jamiyat” tashkiloti tuzilganligi, uning a’zolari soni niyoyatda ko‘p ekanligini, har bir jamiyat a’zolari geografik yangiliklarni yetkazib turishiň izohlaydi.

Alloma “Jo‘g‘rofiya o‘qimoqni naf‘i” asarida geografiya fanini o‘qimoqning foydasini ta’kidlab, geografiya va uning ilmlarini ko‘p va xo‘p ulug‘laysidi. Xulosa qilib aytganda, o‘tgan asr boshida mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish ishlarining boshida turgan ulug‘ jadid bobolarimiz qatori Mahmudxo‘ja Behbudiy ham farzandlarimizning ilm-fan bilan yaqindan tanish bo‘lishlarini istagan. Jumladan, geografiya fani yoshlarning dunyoqarashi oshishiga kuchli ta’sir qilishini bilgan va uni o‘qitishni targ‘ib qilgan. Maktab ta’limi isloh qilinayotgan bungungi kunlarda ham Behbudiy hazratlarining fikrlari ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, o‘tgan asr boshida mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish ishlarining boshida turgan ulug‘ jadid bobolarimiz qatori Mahmudxo‘ja Behbudiy ham farzandlarimizning ilm-fan bilan yaqindan tanish bo‘lishlarini istagan. Jumladan, geografiya fani yoshlarning dunyoqarashi oshishiga kuchli ta’sir qilishini bilgan va uni o‘qitishni targ‘ib qilgan.

Jo‘rabek NAMOZOV,  
CHDPU Geografiya kafedrasidagi dotsenti